

“TASDIQLAYMAN”


Samarqand davlat universiteti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-
ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi
prorektor
R.D.Yuldashev



2023 y. "___" _____.

“TASDIQLAYMAN”

SamDU boshlang'ich
Kasaba uyushmasi
qo'mitasi raisi
Sh.Mahmatmurodov



2023 y. "___" _____.

“KELISHILGAN”

Samarqand davlat universiteti sport klubi raisi
o'rinbosari **F.Oblanazarov**



2023 y. "___" _____.

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga bag‘ishlab universitet professor-o‘qituvchilari hamda ishchi xodimlari o‘rtasida sportning shaxmat va shashka turlari bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqa NIZOMI

1. Maqsad va vazifalari:

Musobaqalar quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:

- 1.1. Samarqand davlat universiteti professor-o‘qituvchilari hamda xodimlarini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish.
- 1.2. Bo‘sh vaqtlarini mazmunli va samarali o‘tkazish.
- 1.3. Sportni ommaviylashtirish.
- 1.4. Ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash va shu orqali madaniy dam olishlarini tashkil qilishdan iborat.

2. Musobaqalarni o‘tkazishga rahbarlik qilish.

Musobaqalarga rahbarlik qilish Samarqand davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori **R.D.Yuldashev**, universitet sport klub raisi o'rinbosari **F.Oblanazarov**, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasida o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Musobaqani o‘tkazish bosh hakam A.Qurbonov, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasida o‘qituvchilaridan iborat hakamlar hay'atiga yuklatiladi.

3. Musobaqa dasturi, shartlari va o‘tkazish joyi.

Musobaqalar O‘zbekiston Respublikasi hududida amaldagi musobaqa qoidalariga asosan o‘tkaziladi.

Musobaqalar 2023-yil 20- noyabrdan boshlab o‘tkaziladi.

Musobaqada Samarqand davlat universitetida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar hamda ishchi-xodimlar ishtirok etadilar.

Musobaqalar:

I-bosqich 2023-yil 20-noyabrdan 2023-yil 5-dekabrgacha, soat 9:00da boshlanadi.

II-bosqich 2023-yil 6-7 dekabr kunlari, soat 15:00 da boshlanadi.

**8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga
bag‘ishlab universitet professor-o‘qituvchilari hamda ishchi xodimlari o‘rtasida
sportning shaxmat va shashka turlari bo‘yicha musobaqaning I-bosqich o‘tkazish**

JADVALI

№	Institutlar va fakultetlar nomi	Musobaqa o‘tish vaqti	Mas’ullarning F.I.Sh	Hakamlarning F.I.Sh
1	Matematika	20.11.2023 y soat 9:00	Dekan o‘rinbosari Sh.Absalamov +998977349473	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
2	Biokimyo instituti	21.11.2023 y soat 9:00	Direktor o‘rinbosari B.N.Otakulov +998933559989	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
3	Geografiya va ekologiya	22.11.2023 y soat 9:00	Dekan o‘rinbosari O.X.Kuvondikov +998937224805	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
4	Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar	23.11.2023 y soat 9:00	Dekan o‘rinbosari S.Abdullayev +998933412223	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
5	Tarix	24.11.2023 y soat 9:00	Dekan o‘rinbosari I.M.Qurbonboyev +998901991079	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
6	Intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari	25.11.2023 y soat 9:00	Dekan o‘rinbosari S.M.Kushbakov +998901000351	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
7	Muhandislik fizikasi instituti	27.11.2023 y soat 9:00	Direktor o‘rinbosari Z.Shodiyev +998937290949	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
8	Yuridik	28.11.2023 y soat 9:00	Dekan o‘rinbosari O.Keldiyorov +998997780990	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchilari
9	Filologiya	29.11.2023 y	Dekan o‘rinbosari	Bosh hakam A.Qurbonov,

		soat 9:00	M.I.Bobotayev +998933333835	Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchilari
10	Inson resurslarini boshqarish	30.11.2023 y soat 9:00	Direktor o'rinbosari U.Eshburiyev +998915505099	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchilari
11	Pedagogik ta'lim	1.12.2023 y soat 9:00	Dekan o'rinbosari Sh.Toshmurodov +998915249176	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchilari
12	Argobiotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi instituti	2.12.2023 y soat 9:00	Direktor o'rinbosari Sh.Namozov +998933472309	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchilari
13	Bo'limlar	4.12.2023 y soat 9:00	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarma boshlig'i M.Boboxonov	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchilari
14	Markazlar	5.12.2023 y soat 9:00	Axborot-resurs markazi direktori A.Rustamov	Bosh hakam A.Qurbonov, Hakamlar: N.Isayev, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchilari

4. Mukofotlash.

Musobaqa g'olib va sovrindorlari I, II, III – darajali diplomlar hamda esdalik sovg'alari bilan Samarqand davlat universiteti boshlang'ich Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan taqdirlanadi.

5. Talabnomalar va qo'shimcha masalalar

Musobaqani o'tkazish universitetda mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Tavsiya etilayotgan talabnomalar talab darajasida, kompyuterda xatosiz terilgan va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Ushbu Nizomning bandlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilganda musobaqa boshlanishidan oldin muassasalarga xabar beriladi.

Musobaqada ishtirok etuvchi professor-o'qituvchilar va ishchi-xodimlarga shart-sharoitlar yaratib berish, musobaqada qatnashayotgan professor-o'qituvchilar hamda xodimlar uchun tibbiy xodimlarni yo'llash hamda musobaqa o'tkazish uchun kerakli jihozlar bilan ta'minlab berish, SamDU sport klubi raisi o'rinbosari F.Oblanazarov

hamda fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası tomonidan amalga oshiriladi.

6. Ariza va qo`shimcha masalalar.

Musobaqa davomida shikoyat va arizalar 1 (bir) soat ichida qabul qilinadi va ko`rib chiqiladi.

7. Sport turlari bo`yicha musobaqa o`tkazish tartibi.

Shaxmat- bu yo`nalishdagi musobaqalar xalqaro shaxmat federatsiyasi qoidasi asosida o`tkaziladi. Jamoalar soniga qarab guruhlariga bo`linadi. Guruhlarda musobaqalar aylana tartibda o`tkaziladi. Uchrashuvlar jadvali musobaqa boshlanishi oldidan qur`a tashlash yo`li bilan aniqlanadi. Musobaqalar o`tkazish davrida jadvalga o`zgartirish kiritilishiga yo`l qo`yilmaydi. Uchrashuvlar hakamlar hay`ati tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o`tkaziladi. Ikki o`yinda ishtirok etmagan jamoa musobaqalardan chetlashtiriladi. Har bir partiya uchun o`n besh daqiqa nazorat vaqti belgilanadi. Yutuq uchun 1 (bir) ochko, durang uchun 0,5 (yarim) ochko, mag`lubiyat uchun 0 (nol) ochko beriladi. Bir xil ochkolar jamg`arilgan holatda g`olib jamoa o`zaro uchrashuvlar va g`alabalar soniga qarab aniqlanadi.

Shashka- musobaqa Xalqaro 64 katakli shashka federatsiyasi qoidalariga asosan o`tkaziladi. Musobaqada qaysi jamoa o`yinni boshlab berishini bilib olish maqsadida qur`a tashlanadi. 64 katakli shashka bo`yicha jamoalar soniga qarab ikki guruhga bo`lingan holda aylanma tarzda o`tkaziladi.

Guruhlardan 1- va 2-o`rinni olgan jamoalar yarim va final bosqichida qatnashadi. Agar tomonlar durang natija qayd etgan bo`lsa g`olib qo`shimcha blits partiyasida aniqlanadi.

Namuna

“TASDIQLAYMAN”
Fakultet dekani

2023 y. “__”

8-dekabr – O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga bag`ishlab universitet professor-o`qituvchilari hamda ishchi xodimlari o`rtasida sportning shaxmat va shashka turlari bo`yicha o`tkaziladigan musobaqada _____ fakultetidan _____ sport turi bo`yicha qatnashish uchun

TALABNOMA

№	F.I.Sh.	Bo`lim	Lavozimi
1			
2			
...			

Jamoa vakili: _____

Jamoa sardori: _____